

“O‘zbektelekom” AKning  
2025-yil “ \_\_\_\_”-avgustdagi  
\_\_\_\_-son buyrug‘iga ilova

## **Yetkazib beruvchi axloq kodeksi**

Toshkent

## **I. Umumiy qoidalar**

1.1 Ushbu Yetkazib beruvchi axloq kodeksi (keyingi o‘rinlarda Kodeks deb yuritiladi) “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya) buyurtmasiga asosan xizmat ko‘rsatuvchi, ishlab chiqaruvchi va pudrat tashkilotlari (elektron do‘kon va boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion shaklida amalga oshiriladigan xaridlar bo‘yicha yetkazib beruvchilar bundan mustasno), (keyingi o‘rinlarda – Yetkazib beruvchi deb yuritiladi)ga qo‘yiladigan asosiy etik talablarni belgilaydi.

1.2 Mazkur Kodeks O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga, Kompaniyaning Ustaviga va Kompaniyaning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.3 Mazkur Kodeksda ko‘zda tutilmagan yoki mazkur Kodeksdan o‘zgacha ta’rif ko‘zda tutilgan hollarda Yetkazib beruvchiga taalluqli tushunchalar va ta’riflar amaldagi qonunchilikka asosan ta’riflanadi.

1.4 Kompaniya o‘z faoliyatida korporativ ijtimoiy mas’uliyatni namoyon etishga va inson huquqlari himoya qilishga, sog‘liqni saqlash va mehnat muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, korrupsiyaga qarshi kurashishni ustuvor o‘ringa qo‘yadi.

## **II. Kompaniya Yetkazib beruvchisi**

2.1 Kompaniyaning mahalliy va jahon telekommunikatsiya sohasidagi keng qamrovli aloqalarining rivojlanishi munosabati bilan raqobatbardosh narxlarda yuqori sifatli, innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etuvchi, Kompaniya biznes xavf-xatarlarini kamaytirishga yordam beruvchi, amaldagi barcha qonunlarga rioya qiluvchi, eng yuqori axloqiy me’yorlarga amal qiluvchi hamda ushbu Kodeksda belgilangan talablarga javob beruvchi Yetkazib beruvchi bilan munosabatlarni qadrlagan holda Kompaniya ehtiyojlari uchun yanada yaxshi ta’minot tizimini joriy etishga intiladi.

2.2 Ushbu Kodeks Kompaniyaning Yetkazib beruvchisi tomonidan amaldagi milliy va xalqaro qonunlar, shartnoma qoidalarida belgilangan talablarga qo‘shimcha ravishda javob berishi kerak bo‘lgan talablarni belgilaydi.

2.3 Yetkazib beruvchilar Kompaniya bilan shartnomaviy munosabatga kirishganda ushbu Kodeksda belgilangan tamoyillardan chetga chiqmasliklari shart.

2.4 Agar ushbu Kodeksning biron bir qismi tushunarsiz bo‘lsa, Yetkazib beruvchi izoh uchun Kompaniyaning Xaridlar departamentiga murojaat qilishi mumkin.

2.5 Ushbu Kodeksga rioya qilmaslik Yetkazib beruvchiga nisbatan hamkorlik munosabatlarini qayta ko‘rib chiqilishiga olib kelishi mumkin.

## **III. Amaldagi qonunlarga rioya qilish**

3.1 Yetkazib beruvchi O‘zbekiston Respublikasining barcha amaldagi qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlariga rioya qilishi shart.

3.2 Agar xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan normalarga nisbatan imtiyozliroq qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3.3 Agar ushbu Kodeksning talabi amaldagi qonunchilikka zid bo‘lsa, amaldagi qonunchilikka mos keladigan eng qat’iy normalar qo‘llaniladi.

#### **IV. Inson huquqlari**

4.1 Yetkazib beruvchi O‘zbekiston Respublikasining mehnat munosabatlari sohasidagi qonunchiligiga muvofiq inson huquqlariga rioya etilishini ta’minlashi, inson huquqlarining har qanday buzilishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

4.2 Yetkazib beruvchi har doim insonlarning shaxsiy qadr-qimmatni, shaxsiy ma’lumotlarning daxlsizligini va har bir shaxsning huquqlarini hurmat qilishga majburdir.

4.3 Yetkazib beruvchi xodimlarga nisbatan nomaqbul munosabatda bo‘lishning har qanday shakliga, jumladan, ma’naviy ta’qiblar, jismoniy tajovuzlar, imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlarining buzilishi, qullik va jinsiy zo‘ravonlik kabi holatlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

#### **V. Majburiy mehnat**

5.1 Yetkazib beruvchi majburiy mehnatning hech qanday shakllaridan, shu jumladan, qarzдорlik va ehtiyojsizlikdan mehnat qilishlik shakllardan foydalanmasligi kerak.

5.2 Yetkazib beruvchi va uning xodimlari o‘rtasidagi mehnat munosabatlari ixtiyoriy bo‘lishi va tahdid, qo‘rqitish yoki majburlashga asoslanmagan bo‘lishi kerak.

#### **VI. Bolalar mehnati**

6.1 Yetkazib beruvchi bolalar mehnatidan foydalanmasligi kerak.

6.2 Ushbu Kodeksda bola deganda 16 yoshga to‘lmagan har qanday shaxs nazarda tutiladi, 15 yoshidan ota-onasidan birining (ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxsning) yozma roziligi bilan mehnat munosabatlariga kirishgan shaxslar bundan mustasno.

6.3 Eng kichik ish yoshi Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konventsiyalarida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligida belgilangan.

#### **VII. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ifloslanishning oldini olish**

7.1 Yetkazib beruvchi atrof-muhitni muhofaza qilish standartlariga muvofiq harakat qilishi va tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarga rioya qilishi, atrof-muhit ifloslanishini minimallashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilish choralari doimiy ravishda takomillashtirib borishi shart.

7.2 Yetkazib beruvchi uglerod chiqindilarini, energiya va suv iste’molini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar, rejalar va strategiyalarni amalga oshirish orqali o‘z faoliyatining atrof-

muhitga har qanday salbiy ta'sirini kamaytirishga, chiqindilarni va qadoqlash materiallarini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, energiya tejaydigan uskunalar va binolardan, ayniqsa kam chiqindili transport vositalaridan foydalanishga harakat qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

7.3 Yetkazib beruvchi inson salomatligi yoki atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavfli chiqindilar (shu jumladan suv va havoga chiqariladigan) chiqarishdan oldin amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiq ularni nazorat qilish va tozalash choralarini ko'rishi kerak.

7.4 Yetkazib beruvchi o'z faoliyati bilan bog'liq chiqindilarni milliy va xalqaro qoidalarga muvofiq utilizatsiya qilishi lozim. Xavfli yuklarni tashishda, xavfli yuklarni tashish bo'yicha xalqaro qoidalarga rioya qilishi kerak.

## **VIII. Korrupsiyaga qarshi kurash va manfaatlar to'qnashuvi**

8.1 Kompaniya korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantiradi va Yetkazib beruvchilardan ham korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishni talab qiladi.

8.2 Kompaniya korrupsiya, poraxo'rlik, tijoratga doir pora berib sotib olish, firibgarlik, o'g'irlik, va o'zlashtirishni qat'iy taqiqlaydi.

8.3 Yetkazib beruvchi korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha barcha qonunchilik va Kompaniya ichki hujjatlariga rioya qilishi va u bilan tuzilgan bitimlarning (noto'g'ri yoki chalg'ituvchi ma'lumotlarni o'z ichiga olmagan) tegishli hisobini yuritishi shart.

8.4 Yetkazib beruvchi Kompaniyadan noqonuniy imtiyozlar olish uchun boshqa shaxs orqali bevosita yoki bilvosita hech kimga pul yoki boshqa qimmatbaho narsalarni bermaslik, taklif qilmaslik, talab qilmaslik yoki qabul qilishga rozilik bermaslik majburiyatini oladi.

8.5 Yetkazib beruvchi Kompaniya xodimlariga yoki vakillariga ta'sir o'tkazish maqsadida ularga sovg'alar taklif qilmaslik, vakillik tadbirlarni tashkil etmaslik yoki boshqa imtiyozlarni bevosita yoki bilvosita ko'rsatmaslik, shuningdek tanlov g'olibi bilan muzokaralar olib borish, tanlov yoki shartnoma tuzish jarayonida qiymatidan qat'i nazar, Kompaniya xodimlariga sovg'alar taklif qilmaslik va vakillik tadbirlarni tashkil etmaslik majburiyatini ham o'z bo'yniga oladi.

8.6 Yetkazib beruvchining mansabdor shaxsi yoki uning yaqin qarindoshi Kompaniyada bevosita yoki bilvosita mulkiy manfaat/nazoratga ega ekanligini oshkor qilishi shart (bu talab fond birjasida ro'yxatga olingan Kompaniya aksiyalarining 5%gacha egalariga taalluqli emas).

8.7 Yetkazib beruvchi Kompaniyaga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan haqiqiy, potentsial yoki taxmin qilingan manfaatlar to'qnashuvlarini Kompaniyaga ma'lum qilishi shart.

8.8 "Manfaatlar to'qnashuvi" deganda — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat tushuniladi.

8.9 Yetkazib beruvchi ishbilarmonlik munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday manfaatlar to'qnashuvidan qochishi kerak.

## **IX. Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyasi**

9.1 Yetkazib beruvchi Kompaniyaning xo'jalik faoliyatiga, uning shartnomalariga, loyihalariga, moliyaviy holatiga yoki ko'rsatkichlariga taalluqli barcha ma'lumotlarga nisbatan, agar Kompaniya bilan kelishilgan boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, maxfiylikni saqlashi shart.

9.2 Yetkazib beruvchi u bilan ish yuritadigan shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilinmasligini ta'minlashi shart.

9.3 Yetkazib beruvchi shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish bilan bog'liq ma'lumotlarning daxlsizligi va xavfsizligiga oid qonunlar va qonunosti hujjatlariga rioya qilishi shart.

9.4 Yetkazib beruvchi mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarining xavfsiz saqlanishini ta'minlashi va ularni oshkor qilishga imkon bermasligi shart.

9.5 Yetkazib beruvchi ma'lumotlarning tegishli himoyasini, ma'lumotlar xavfsizligi tizimlarining ishonchliligini va Kompaniyaning shaxsiy ma'lumotlari bilan ishlaydigan o'z xodimlarining harakatlarini to'g'ri nazorat qilishni ta'minlashi shart.

## **X. Raqobatni cheklovchi harakatlar**

10.1 Yetkazib beruvchi milliy va xalqaro raqobat to'g'risidagi qonunchilikni va monopoliyaga qarshi talablarni buzmaslik, shuningdek ularni buzish maqsadida til biriktirmaslik majburiyatini oladi.

10.2 Yetkazib beruvchi adolatli biznes yuritish, reklama va raqobat standartlariga rioya qilishi, boshqalarning intellektual mulk huquqlarini hurmat qilishi shart.

## **XI. Pul mablag'larini legallashtirish**

11.1 Yetkazib beruvchi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning har qanday shakliga keskin qarshi turishi va Yetkazib beruvchi tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalar uchinchi shaxslar tomonidan jinoiy daromadlarni legallashtirish maqsadida foydalanilmasligini yoki terrorizmni moliyalashtirmaslikni ta'minlash choralarini ko'rishi shart.

## **XII. Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish**

12.1 Yetkazib beruvchidan ushbu Kodeksning mumkin bo'lgan yoki ma'lum bo'lgan buzilishlari haqida zudlik bilan xabar berishlari talab qilinadi.

12.2 Agar sizda ushbu Kodeks bo'yicha savollar bo'lsa yoki uni kimdir buzgan deb hisoblasangiz, Kompaniyaning [info@uztelecom.uz](mailto:info@uztelecom.uz) elektron pochtasiga murojaat qilish huquqiga egasiz.